

KRIMINOGEN VAZIYATI MURAKKAB MAHALLALARDA JINOYATLARNING OLDINI OLISH FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ulug‘bekov Bekzod Ulug‘bekovich

IIV Akademiyasi magistraturasi

“Tashkiliy-taktik boshqaruv” mutaxassisligi tinglovchisi

Annotatsiya

Maqolada kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish faoliyatining mazmun-mohiyati, uning huquqiy, tashkiliy va kriminologik xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarori bilan tasdiqlangan manzilli choralar konsepsiyasi, huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonunchilik, jamoat xavfsizligi konsepsiyasi hamda kriminologiya sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkil etishga oid normativ asoslar o‘rganiladi. Shuningdek, German Goldshteynning “problem-oriented policing” yondashuvi, Ronald Klarkning “situational crime prevention” konsepsiyasi, Devid Vaysburd va Entoni Braganing “hot spots policing” haqidagi qarashlari, shuningdek, Singapur, Buyuk Britaniya va xalqaro amaliyot misolida mahalla kesimida jinoyat profilaktikasini kuchaytirishning samarali mexanizmlari yoritiladi. Maqolada murakkab mahallalarda profilaktika faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari sifatida manzillilik, hududiy-konsentratsiyalangan ta’sir, shaxsga yo‘naltirilgan ishlash, idoralararo muvofiqlashuv, raqamli va muhandislik-profilaktik yechimlar, shuningdek, “Ilmiy xulosa – tavsiya – natija” tamoyili asosida boshqarish alohida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kriminogen vaziyat, mahalla, huquqbuzarliklar profilaktikasi, manzilli choralar, “CPTED”, “hot spots policing”, “problem-oriented policing”, ijtimoiy profilaktika, jamoat xavfsizligi.

Abstract

The article analyzes the essence of the process of crime prevention in neighborhoods with a complex criminogenic situation, its legal, organizational and criminological analysis. The normative framework for the organization of structural targeted legislation, legislation on crime prevention, public law consultation and scientific and practical control in criminology is studied by the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 3, 2025 No. PQ-1. , German Goldstein's “problem-oriented policing” signs, Ronald Clark's “situational criminal prevention” construction, David Weisburd and Anthony Braga's views on “hot spots policing”, effective mechanisms for crime prevention in the neighborhood are highlighted on the example of Singapore, Great Britain and international practice. The

article highlights the specific features of activities in complex neighborhoods as targeted, departmental-concentrated impact, person-oriented work, interagency cooperation, planning and engineering-preventive measures, and “Scientific assistance - recommendations - give results”.

Keywords: criminogenic situation, neighborhood, crime prevention, targeted measures, “CPTED”, “hot spots policing”, “problem-oriented policing”, social prevention, public safety.

Аннотация

В статье анализируется сущность мероприятий по предотвращению преступности в районах со сложной криминогенной ситуацией, их правовые, организационные и криминологические особенности. Изучается концепция целенаправленных мер, утвержденная Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПК-1 от 3 января 2025 года, законодательство о предотвращении преступности, концепция общественной безопасности и нормативно-правовая база организации научно-практических исследований в области криминологии. Также освещаются подход «проблемно-ориентированной полиции» Германа Гольдштейна, концепция «ситуационной профилактики преступности» Рональда Кларка, взгляды Дэвида Вайсбурда и Энтони Браги на «полицейскую деятельность в горячих точках», а также эффективные механизмы усиления профилактики преступности на уровне районов на примере Сингапура, Великобритании и международной практики. В статье особо подчеркиваются специфические особенности профилактической деятельности в сложных районах: целенаправленное, территориально концентрированное воздействие, ориентированная на человека работа, межведомственная координация, цифровые и инженерно-профилактические решения, а также управление, основанное на принципе «Научный вывод – рекомендация – результат».

Ключевые слова: криминогенная ситуация, район, профилактика преступности, целенаправленные меры, «CPTED», «полицейская работа в проблемных зонах», «проблемно-ориентированная полицейская работа», социальная профилактика, общественная безопасность.

Hozirgi bosqichda O‘zbekistonda jinoyatlarning oldini olish siyosati umumiy profilaktikadan manzilli, hududiy va ilmiy asoslangan profilaktika modeliga o‘tib bormoqda. Ayniqsa, oxirgi besh yil davomida kriminogen holati bo‘yicha “qizil” toifada turgan mahallalarda xavfsiz muhit yaratish davlat siyosatining alohida ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1-son (2025-yil 3-yanvar) qaroriga muvofiq bunday mahallalarda faqat an‘anaviy profilaktika emas, balki maxsus tashkiliy-profilaktik choralar, “xonadonbay” va “fuqarobay” ishlash, kuch va vositalarni qayta taqsimlash, raqamli texnologiyalar

hamda CPTED asosida xavfsiz muhitni shakllantirish nazarda tutilgan. Bu esa murakkab mahallalardagi profilaktika faoliyati oddiy hududlardagidan mazmunan farq qilishini ko'rsatadi¹.

Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda profilaktika faoliyatining huquqiy tabiatiga e'tibor beradigan bo'lsak, bu borada ma'lum bir tizim shakllanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni profilaktikani huquqbuzarliklarni aniqlash, bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan umumiy davlat-ijtimoiy faoliyat sifatida belgilaydi². O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1-son (2025-yil 3-yanvar) qarori mazkur umumiy qoidalarni murakkab mahallalar sharoitiga moslashtirib, profilaktikani yuqori xavfli hududga nisbatan maxsus rejimda qo'llashni nazarda tutadi. Shu ma'noda, murakkab mahallalarda profilaktika faoliyatining birinchi o'ziga xos xususiyati – uning **maxsus huquqiy rejimga ega manzilli profilaktika** shakli ekanidir. Bu yerda profilaktika ob'ekti "umumiy aholi" emas, balki yuqori xavfli hudud, xavfli joylar, xavf guruhidagi shaxslar va ijtimoiy profilaktika ob'ektlaridir³.

Shu bilan birga, "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi" jamoat xavfsizligini faqat huquqni muhofaza qilish organlarining emas, balki davlat va jamiyatning hamkorlikdagi faoliyati sifatida talqin qiladi. Demak, murakkab mahallalarda profilaktika faoliyatining huquqiy tabiati kompleks bo'lib, u huquqni muhofaza qiluvchi, ijtimoiy, tashkiliy va infratuzilmaviy choralarni birlashtiradi⁴.

Murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish faoliyatining eng muhim belgisi – **manzillilik**dir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarorida har bir mahalla kesimida alohida oylik "yo'l xaritalari" ishlab chiqilishi, mas'ul rahbarlarning nomma-nom birlashtirilishi, profilaktika inspektorlari sonining oshirilishi, patrul-post naryadlarining doimiy xizmati yo'lga qo'yilishi nazarda tutilgan. Bu yondashuv profilaktikani umumiy chaqiriqlar darajasida emas, balki aniq hudud, aniq ko'cha, aniq ob'ekt va aniq shaxs darajasida amalga oshirishga qaratilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-253-son (2025 yil 18 avgust) qarori // <https://lex.uz/docs/7690026/>

² O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" // O'QRQ-371-son (2014 yil 14 may) Qonuni // <https://lex.uz/docs/2387357/>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son (2025 yil 3 yanvar) qarori // <https://lex.uz/docs/7330260/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son (2021 yil 29 noyabr) Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5749291/>

Bu jihat xalqaro kriminologiyadagi “**hot spots policing**” nazariyasiga hamohangdir. Devid Vaysburd va Lourens Sherman tadqiqotlari jinoyatlar muayyan kichik hududlarda konsentratsiyalanishini va politsiya kuchlarini ana shu “qiziq nuqtalar”ga yo‘naltirish jinoyatni kamaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatgan⁵. Kollej of Polising ham “hot spots policing” ayrim jinoyat turlari, xususan, mulkiy jinoyatlar, zo‘ravonlik va tartibbuzarlikni kamaytirishda ijobiy samara berishini qayd etadi⁶. O‘zbekiston modelida esa ushbu yondashuv mahalla kesimida “kriminogen og‘ir nuqtalar”ni aniqlash va ularga resurslarni qayta taqsimlash orqali ifodalanmoqda.

Shunday qilib, murakkab mahallalarda profilaktika faoliyatining ikkinchi o‘ziga xos xususiyati – **hududiy konsentratsiyalangan, xavfga asoslangan boshqaruv modelidir**.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarorida ijtimoiy profilaktika ob‘ektlari, ayniqsa oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar holidan kamida har uch kunda xabar olish, nizoli oilalarga huquqiy maslahat berish, voyaga yetmaganlar bilan inspektor-psixologlar ishtirokida ishlash kabi choralar belgilangan. Bu murakkab mahallalarda profilaktika faoliyati faqat hududiy emas, balki **individual-profilaktik va viktimologik** mazmunga ega ekanini anglatadi.

Ushbu yondashuv German Goldshteynning “problem-oriented policing” g‘oyasi bilan uyg‘un. Goldshteyn politsiya faoliyati alohida hodisalarga reaksiya qilishdan ko‘ra, muammoning asl tabiati va sabablarini o‘rganib, shu asosda aniq yechimlar ishlab chiqishi lozimligini ta’kidlagan⁷. Kollej of Polisingning “problem-solving policing” bo‘yicha qo‘llanmalari ham “SARA – scanning, analysis, response, assessment” – modeli asosida muammoni aniqlash va baholashni samarali yo‘l sifatida e’tirof etadi⁸. O‘zbekistondagi “xonadonbay” va “fuqarobay” ishlash amaliyoti aynan shu muammo-yechim logikasining mahalla darajasidagi ifodasi hisoblanadi.

Demak, uchinchi o‘ziga xos xususiyat – **individual xavfni erta aniqlash va shaxsga nisbatan manzilli profilaktik ta’sir o‘tkazishdir**.

Murakkab mahallalarda profilaktika faoliyatining yana bir muhim belgisi – uning yuqori darajada **koordinatsiyalashgan boshqaruv modeliga** egaligidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni

⁵ Sherman L.W., Weisburd D. General Deterrent Effects of Police Patrol in Crime Hot Spots: A Randomized, Controlled Trial // Justice Quarterly. – 1995. – Vol. 12, No. 4. – P. 625–648.

⁶ College of Policing. Hot Spots Policing [Electronic resource]. — Available at: <https://www.college.police.uk/guidance/hot-spots-policing>.

⁷ Goldstein H. Problem-Oriented Policing. — New York : McGraw-Hill, 1990. — 180 p.

⁸ College of Policing. Problem-Solving Policing [Electronic resource]. — Available at: <https://www.college.police.uk/guidance/problem-solving-policing>.

yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosarlari, hududiy prokurorlar, ichki ishlar organlari rahbarlari, hokimlar va ta'lim tashkilotlari rahbarlari Konsepsiya ijrosi uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi. Har hafta, har oy va yil yakuni bo'yicha hisobot, reyting va indikatorlar yuritilishi nazarda tutilgan.

Bu mexanizm oddiy profilaktikadan farqli ravishda javobgarlikni "tarqoq" holatda emas, balki **personallashtirilgan va o'lchanadigan** shaklda belgilaydi. Shu jihatdan u zamonaviy "public safety governance" yondashuviga mos keladi⁹. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida ham davlat organlari, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish asosiy vazifalardan biri sifatida ko'rsatilgan.

Shunday ekan, to'rtinchi o'ziga xos xususiyat – **idoralararo integratsiya, KPI va shaxsiy javobgarlikka tayangan boshqaruv**dir.

O'zbekiston modelida murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish faoliyati shunchaki amaliyotchilarga emas, balki ta'lim va tadqiqot muassasalariga ham bog'langan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qaroriga muvofiq, Kriminologiya tadqiqot instituti, IIV Akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Toshkent Davlat yuridik universiteti va Jamoat xavfsizligi universiteti mahallalarni ilmiy-amaliy tanqidiy o'rganib, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishi kerak. Shu bilan birga mazkur qarorda esa ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tashkiliy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini belgilab bergan.

Bu holat profilaktika faoliyatining beshinchi o'ziga xos xususiyatini belgilaydi: **ilmiy xulosa – tavsiya – natija tamoyiliga asoslangan profilaktika**. Xalqaro adabiyotda ham muammoga yo'naltirilgan politsiya faoliyati, joyga asoslangan tahlil va natijani baholash samarali profilaktikaning zarur sharti sifatida ko'riladi.

Ronald Klarkning situational crime prevention konsepsiyasiga ko'ra, jinoyatni kamaytirish uchun huquqbuzar shaxsnigina emas, balki jinoyat sodir etish imkoniyatini ham cheklash zarur. Buning uchun xavfni oshirish, imkoniyatni qisqartirish, mukofotni kamaytirish va nazoratni kuchaytirish kabi usullar qo'llaniladi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi

⁹ Fleming J., Rhodes R.A.W. The Oxford Handbook of Policing and Security Governance. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 540 p.

¹⁰ Clarke R.V. Situational Crime Prevention: Successful Case Studies. – 2nd ed. – Guilderland, NY: Harrow and Heston, 1997. – 428 p.

samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarorining ilova sifatida berilgan "namunali xavfsiz ko'cha" va "namunali xavfsiz uy" talablarida aynan shu mantiq aks etgan: kirish-chiqish joylariga intellektual kameralar o'rnatish, tungi yoritishni ta'minlash, domofonlar, "tashvish" tugmalari, xavfli joylarni texnik tartibga solish, noqonuniy savdo rastalarini bartaraf etish, ovloq va qorong'u hududlarni xavfsiz joylarga aylantirish nazarda tutilgan. Bu – jinoyatga sharoit yaratayotgan muhitni o'zgartirish orqali profilaktika qilishning klassik ko'rinishidir.

Xalqaro darajada "CPTED" ko'p tarmoqli yondashuv sifatida tan olingan. Xalqaro "CPTED" Assotsiatsiyasi va "UN-Habitat" materiallarida CPTED qurilgan va tabiiy muhitni shunday tashkil etishga qaratilgani ta'kidlanadiki, natijada viktimlashish xavfi va jinoyat imkoniyatlari kamayadi, jamoaviy nazorat esa kuchayadi¹¹. Buyuk Britaniyada "Secured by Design" tashabbusi ham qurilish va shaharsozlikda xavfsiz dizayn tamoyillarini qo'llash orqali shaxs va mol-mulkka qarshi jinoyatlar xavfini kamaytirishga qaratilgan¹².

Demak, oltinchi o'ziga xos xususiyat – **muhitni loyihalash va raqamli vositalar orqali xavfsizlashtirishdir.**

Mazkur yo'nalishda xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsa, Singapur tajribasi murakkab mahallalarda profilaktika faoliyati uchun ayniqsa ahamiyatlidir. Singapur politsiyasi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 1983 yildan boshlab "Neighbourhood Police Post" tizimi joriy etilgan bo'lib, u proaktiv va jamoaga asoslangan politsiya faoliyatiga o'tishni anglatgan¹³. Keyinchalik bu yondashuv "Neighbourhood Police Centre" va "Community Policing Unit" tizimlari bilan takomillashtirilgan¹⁴. Ularda mahalla darajasida patrul, aholi bilan ishonchli aloqa, jinoyat profilaktikasi bo'yicha maslahatlar va ko'ngillilar ishtirokini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston uchun bu tajribadan kamida uch xulosa kelib chiqadi. *Birinchi*dan, mahallada doimiy jismoniy hozirlik va aholi bilan ishonchli muloqot profilaktika samaradorligini oshiradi.

*Ikkinchi*dan, profilaktika inspektori yoki mahalla huquq-tartibot maskani faqat nazorat qiluvchi emas, balki aholi uchun doimiy maslahat va ko'mak nuqtasiga aylanishi lozim.

*Uchinchi*dan, rasmiy kuch-vositalarni jamoatchilik, ko'ngillilar va raqamli axborot kanallari bilan uyg'unlashtirish muhim.

¹¹ International CPTED Association. *Crime Prevention Through Environmental Design (CPTED) Guidelines* [Electronic resource]. – Available at: <https://www.cpted.net/>

¹² UK Police Crime Prevention Initiatives. *Secured by Design – Design Guide* [Electronic resource]. — Available at: <https://www.securedbydesign.com/>

¹³ Singapore Police Force. *Neighbourhood Police Post System* [Electronic resource]. – Available at: <https://www.police.gov.sg>

¹⁴ Quah J.S.T. *Policing Singapore: Lessons for Other Asian Countries* // Asian Education and Development Studies. – 2014. – Vol. 3. – No. 3. – P. 252-265.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish faoliyatining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin:

maxsus huquqiy rejimli manzilli profilaktika;

hududiy-konsentratsiyalangan, riskka asoslangan ta’sir;

“xonadonbay” va “fuqarobay” shaxsga yo‘naltirilgan ishlash;

idoralararo muvofiqlashuv va shaxsiy javobgarlikning yuqoriligi;

ilmiy xulosa, kriminologik tahlil va natijadorlik bahosiga tayanish;

CPTED, videokuzatuv, yoritish, domofon, “tashvish” tugmasi kabi situativ profilaktika choralarining ustuvorligi;

ijtimoiy profilaktika, huquqiy targ‘ibot va jamoatchilik ishtirokining integratsiyalashganligi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish faoliyati oddiy profilaktika tizimining davomi emas, balki uning alohida, kuchaytirilgan va manzilli shakli hisoblanadi. Uning mohiyati jinoyatga qarshi kurashni reaktiv emas, balki prognostik, riskka asoslangan va ilmiy-amaliy boshqaruv modeliga aylantirishda namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda (PQ-1-son qarori asosida) shakllantirilgan model jahon kriminologiyasidagi “problem-oriented policing”, “situational crime prevention”, “hot spots policing” va “community policing” kabi yondashuvlarni milliy mahalla instituti, “mahalla yettiligi”, mahalliy hokimiyat va ta’lim muassasalari imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirgani bilan ahamiyatlidir.

Shu bois, murakkab mahallalarda profilaktika samaradorligini oshirish uchun kriminogen omillarni mahalla kesimida muntazam o‘rganish, har bir mahalla uchun alohida kriminogen portret tuzish, “namunali xavfsiz ko‘cha” va “namunali xavfsiz uy” standartlarini amalda baholash indikatorlari bilan boyitish, profilaktika inspektorlari va “mahalla yettiligi” uchun tahlilga asoslangan qaror qabul qilish kompetensiyalarini kuchaytirish, shuningdek, ilmiy muassasalarning xulosalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalla yo‘l xaritalariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” // O‘RQ-371-son (2014 yil 14 may) Qonuni // [https://lex.uz/docs/2387357./](https://lex.uz/docs/2387357/)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son (2021 yil 29 noyabr) Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/5749291./>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimi

natijadorligini yanada oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi PQ-253-son (2025 yil 18 avgust) qarori // [https://lex.uz/docs/7690026./](https://lex.uz/docs/7690026/)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son (2025 yil 3 yanvar) qarori // [https://lex.uz/docs/7330260./](https://lex.uz/docs/7330260/)
5. *Sherman L.W., Weisburd D. General Deterrent Effects of Police Patrol in Crime Hot Spots: A Randomized, Controlled Trial // Justice Quarterly. – 1995. – Vol. 12, No. 4. – P. 625–648.*
6. *Goldstein H. Problem-Oriented Policing. – New York: McGraw-Hill, 1990. – 180 p.*
7. *Fleming J., Rhodes R.A.W. The Oxford Handbook of Policing and Security Governance. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 540 p.*
8. *Quah J.S.T. Policing Singapore: Lessons for Other Asian Countries // Asian Education and Development Studies. – 2014. – Vol. 3. – No. 3. – P. 252-265.*
9. *Clarke R.V. Situational Crime Prevention: Successful Case Studies. – 2nd ed. – Guilderland, NY: Harrow and Heston, 1997. – 428 p.*
10. International CPTED Association. *Crime Prevention Through Environmental Design (CPTED) Guidelines* [Elektron manbaa]. – Available at: [https://www.cpted.net./](https://www.cpted.net/)
11. *College of Policing. Problem-Solving Policing* [Elektron manbaa]. – Available at: <https://www.college.police.uk/guidance/problem-solving-policing>.
12. UK Police Crime Prevention Initiatives. *Secured by Design – Design Guide* [Elektron manbaa]. – Available at: [https://www.securedbydesign.com./](https://www.securedbydesign.com/)
13. *College of Policing. Hot Spots Policing* [Elektron manbaa]. – Available at: <https://www.college.police.uk/guidance/hot-spots-policing>.
14. Singapore Police Force. *Neighbourhood Police Post System* [Elektron manbaa]. – Available at: [https://www.police.gov.sg./](https://www.police.gov.sg/)